XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani,O‘zbekistonko‘chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2024 - yil 9 - yanvar VI-66-13-8-118-K/24 Uzun tuman hokimligi

Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan tuman Soliq inspeksiyasi rahbari Sh.Qosimovning axboroti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi.**

1. Tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov)ning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Uzun tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Baratov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Qosimov)ga: O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 32,3 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 257 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar

va chiqishlarni amalga oshirish va televideniya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi matbuoti (T.Ataxonov), “Bobotog‘ tongi” gazetasi tahririyati muharriri (I.Bobokolonov)larga mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Bakiyev) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan etiboran kuchga kiradi

Sessiya raisi **Ishmamatovich T. B.**

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-66-13-8-118-K/24-son qaroriga
1-ilova

Uzun tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisentlar

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Baxoriston MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
2	Beshkapa MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
3	Bobotog‘ MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
4	Chakar MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
5	Chinor MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
6	Dexkon MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
7	Dug‘ob MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
8	Dustlik MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
9	Erkinlik MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
10	Fayzobod MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
11	Surxon MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
12	Fayzova MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
13	Guliston MFY	0,80	29 440 000	0,70	239
14	Istiklol MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
15	Jiydabuloq MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
16	Karashik MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
17	Kichik joncheka MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
18	Madaniy Turmush MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
19	Malandiyon MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
20	Mexnat MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
21	Mustakillik MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
22	Mustakillikning 22 yilligi MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
23	Navruz MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
24	Nurli kelajak MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
25	Obizarang MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
26	Obod yurt MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
27	Ok ostona MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
28	Okmachit MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
29	Paxlavon MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
30	Saxovat MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
31	Serxarakat MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
32	Tojikobod MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
33	Toltugay MFY	0,72	26 496 000	0,70	239

34	Tomchi MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
35	Ulankul MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
36	Urmanchi MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
37	Uzbekiston MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
38	Uzunkishlok MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
39	Xatib Kaxromon MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
40	Xujakulsin MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
41	Xursand MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
42	Yangi Kuch MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
43	Yangi obod MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
44	Yangi xayot MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
45	Yangiruzgor MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
46	Ittifoq MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
47	Yangishaxar MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
48	Yangiyul MFY	0,72	26 496 000	0,75	257
49	Yoshlik MFY	0,88	32 384 000	0,75	257
50	Zarkamar MFY	0,72	26 496 000	0,70	239
51	Nurafshon MFY	0,72	26 496 000	0,70	239